

## NYURENBERG SUDI VA UNING TARKIB TOPISHI

**Shonazarova Dilnoza Dilshod qizi**

[d.shonazarova@nordicuniversity.org](mailto:d.shonazarova@nordicuniversity.org)

ORCID ID: 0000-0003-1482-5479

---

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Nyurenberg sudi haqida umumiy ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada sud jarayonining tashkillashtirilishi, unda foydalanilgan til juftliklari, tarjimonlar guruhini yig'ish bo'yicha nazariyalar haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Nyurenberg sudi, urush, tergov, tarjimon, tergovchi, ishchi tillar, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima.*

---

### KIRISH

Natsist jinoyatchilari ustidan olib borilgan sud - Nyurenberg ishi 1945-yil 20-noyabrdan 1946-yil 1-oktyabrgacha, jami bo'lib 10 oy va 10 kun davom etgan. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, Germaniyaning infrastrukturasi butunlay inqirozga yuz tutadi. Hukumat esa to'rt ittifoqchi davlat: AQSh, Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi va Fransiya nazorati ostida edi. O'sha paytda Nyurenberg, AQSh nazoratidagi hududda joylashgan edi. Nyurenberg sudi bombardimondan omon qolgan binolardan biri Nyurenberg adliya saroyining 600-zalida o'tkazilgan. Sud jarayonida sovet tarjimonlari tarkibida ingliz-rus tillari juftligida tarjimonlik qilgan Tatyana Ruzskaya o'zining "Nyurenbergda 315 kun" deb nomlangan intervyusida o'sha paytlar shaharning tarixiy markazi butunlay vayronaga aylangandi, amerikaliklar negadir shaharning tarixiy yodgorliklar va haykallarga boy qismini portlatishgandi, lekin aynan adliya saroyi va u joylashgan ko'chaga umuman zarar yetmagan, menimcha, sudni ataylab natsistlarning sevimli va harbiy paradlari bo'lgan joyda o'tkazish uchun shunday qilishgan deydi. Shuningdek, ushbu sud ishiga oid qaydlar ingliz, nemis, fransuz va rus tillarida 42 tomli kitob shaklida chop etilgan. Bu jarayonda 200 tonna qog'oz, ovoz yozib olish uchun 27000 metrlik magnit plyonkasi ishlatilgan hamda 7000 ta surat olingan. Qaror qabul qilish uchun esa 400 dan ortiq yig'ilishlar o'tkazilgan.

Dastlabki tergovlar sud ishi boshlangunga qadar nemis - ingliz tillari juftligida ketma-ket tarjima orqali amalga oshirilgan. Nyurenberg uchun kerakli tarjimonlarga e'lon berilib, ular suddan ancha oldin saralab olingan va dastlabki tayyorlovdan o'tkazilgan. Shuningdek, ular bir necha kunlab davom etgan sud oldi tergovlarida ketma-ket tarjima ham amalga oshirishgan. Nyurenberg sudida ingliz-nemis tillari juftligida tarjimonlik qilgan Zigfrid Ramler 2006-yil, 18-fevralda Tokio Xorijiy tillar fakultetida so'zlagan nutqida dastlabki tergov jarayoni haqida quyidagicha gapiradi: "Dastlabki tergov bosqichida tarjima ketma-ket, asosan nemis-ingliz tilida bo'lib, ayblanuvchi tergov xonasiga qo'riqchi tomonidan olib kelinar, tergov kelishilgan advokat, tarjimon va sud muxbiri (stenotipist yoki stenograf) ishtirokida maxsus xonada olib borilardi. Biz bu bosqichda juda qattiq, ertalabdan kechgacha ishlardik". Shuningdek, Ramler ushbu sud jarayonida Gitlerdan keyingi o'rinda turuvchi German Goering, qurolli kuchlar yetakchilari, tashqi ishlar vaziri va boshqa shu kabi asosiy nemis yetakchilari bilan olib borilgan tergov ishlarida qatnashgani va bu davr hayotida unutilmas iz qoldirganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, jarayonda ishtirok etgan tarjimonlar tergovdagi ma'lumotlarni sir tutish haqida qasamyod qilishgan.

Sud jarayonida to‘rt - nemis, rus, ingliz va fransuz tillaridan ishlatish zaruriyati mavjudligi uchun sinxron tarjimadan foydalanishga qaror qilishgan. Aks holda, ketma-ket tarjimadan foydalanilganda, o‘zi shundog‘am oylab davom etgan qiyin va zerikarli sud ishi, uni 3 tilga tarjima qilish sababi bilan o‘ta ortiqcha yuk bo‘lardi. Qolaversa, Nyurenberg sud ishi Germaniyadan tashqari butun dunyo matbuoti diqqat markazida ham edi. Shuning uchun ham sinxron tarjimadan foydalanish muqarrarga aylangandi. Zero insonlar bekorga “Zaruriyat-izlanishni tug‘diradi deyishmaydi”. Loyiha boshida Fransiyada tug‘ilib o‘sgan, urushgacha Jorjtaun universitetida fransuz tilidan saboq bergan, keyinchalik esa general Eyzenxaurga tarjimonlik qilgan polkovnik Leon Doster turgan. Jarayonga harbiy va oddiy fuqaro bo‘lgan og‘zaki tarjimonlar, ikki tilda erkin muloqot qiluvchilar, chet tili o‘qituvchilari, oq rus immigratsiya a‘zolari taklif qilingan. Sudda tarjima qilishni xohlagan ba‘zi tarjimonlar o‘zlari kelib xizmatlarini taklif qilishgan. Bunga hamkor qo‘shinlarda xizmat qilgan avstriyalik Zigfrid Ramler yaqqol misol bo‘la oladi. Biroq ketma-ket tarjimonlarning ko‘pchiligi, ikkita tilda erkin gapira oladiganlar va xorijiy til o‘qituvchilari qo‘liga mikrofon tutqizilganda so‘z topolmay “qotib qolishar edi.” Sinxron tarjimonlikka nomzodlarni topish uchun maxsus Shveysariya, Parij va Londonga borishgan va nihoyat har biri 12 ta tashkil topgan jami 36 ta tarjimondan iborat guruh yig‘ishgan. Sud jarayoni boshlanguncha nomzodlar mikrofon va uskunalarda ishlashni mashq qilishgan, sinxron tarjima jarayonini taqlid qilishgan. Sinxron tarjimonlikka nomzodlardan qo‘lga ilinadiganini tanlab olish uchun aniq mezonlar bo‘lmagan. Lekin Ramlarning ta‘kidlashicha, eng yaxshi nomzodlar hayotining katta qismini ikkinchi tili bo‘lgan davlatda o‘tkazganlardan chiqqan. Sovet davlati nomidan qatnashgan tarjimonlar, asosan universitet bitiruvchilari va chet el bilan madaniy aloqalar jamiyati xodimlari edi. Boshqa mamlakatlardan qatnashayotgan tarjimonlar katta yoshli va anchagina tarjimonlik malakasiga ega bo‘lgan insonlar bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligi emigrant bo‘lib Angliya va AQShda uzoq vaqt yashagan, ikkita yoki uchta xorijiy tilni ona tilidek bilar edi. Tarjima jarayoniga immigrantlar ham qo‘shilib olgan. Ularning ba‘zilari oldin Fransiyada yashab, keyinchalik AQShga ko‘chib ketgan fuqarolar edi. Ular ham sud jarayonida fransuz tilidan ingliz tiliga va aksincha tarjima qilishgan.” Tarjimonlarga oldindan hech qanday nutq tarjima qilishga berilmagan. Chunki sud jarayonida chaqirilgan guvohlar, ayblanuvchilar, qoralovchi, oqlovchi advokatlarning, sudyaning va boshqa vakillarning nutqlari vaziyatga qarab turlicha o‘zgarib boravergan. Nyurenberg ishi uchun dastlabki sinxron tarjimonlar guruhini topish, ularni tayyorlash oson bo‘lmagan. Tarjimonlar ham anchagina katta bosim ostida ishlashga majbur bo‘lishgan. Shu zaylda, sinxron tarjima paydo bo‘lib, sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng, dunyo miqyosida deyarli barcha xalqaro konferensiya va uchrashuvlarda keng foydalanilgan. Hozirgi kunda yirik xalqaro tashkilotlarning o‘z sinxron tarjimon guruhlari mavjud va bunday tarjimonlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tishadi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, Nyurenberg sudi tom ma‘noda tarjima, ayniqsa og‘zaki tarjima turlari bo‘lmish sinxron va ketma-ket tarjima uchun asos sifatida xizmat qilgan desak mublag‘a bo‘lmaydi. Sud uchun chaqirilgan, aniqrog‘i, turli mamlakatlardan saralab olingan tarjimonlar aslida haqiqiy malakaviy jihatdan tarjimonlar emas, asosan, tilshunoslar va o‘qituvchilar edi. Mana shu sud jarayonidagina ular yetilib, sinovlar va qiyinchiliklardan o‘tib, tajriba oshirgan holda haqiqiy tarjimon sifatida yetishib chiqish va malaka oshirishga muvaffaq bo‘lishgan. Shuningdek, sud jarayoni bir yoki ikki emas, nemis, rus, ingliz va fransuz kabi bir necha tillar juftligini o‘z ichiga qamrab olgani bilan ham xarakterlanadi. Nyurenberg sudi tarjimonlarni nafaqat sud jarayoni va undan so‘ng ham bir necha yilgacha o‘z qamroviga olgan.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizova, D. (2023). INKLYUZIV TA'LIM: IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH UCHUN ULARGA CHET TILLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, 1(15).
2. Isakova, M. (2024). TALABALARNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI (2-sho'ba). *Nordic\_Press*, 4(0004).
3. Karimova, M. (2019). Verbalization of the concept "love" by phraseological units and proverbs. *Think India Journal*, 22(14), 10939-10945.
4. Kulmamatov, O. (2024). GTM in teaching English as a foreign language. *Nordic\_Press*, 3(0003).
5. Rejapova, N. (2024). Integriertes fach-und sprachunterricht an den universitäten: ziele, inhalt, methodik. In *Probleme de filologie: aspecte teoretice și practice* (pp. 45-48).
6. Ruth Morris. Review of "The Origins of Simultaneous Interpretation: The Nuremberg Trial" by Francesca Gaiba, 1998. Published: September 10, 2000 Last updated: December 2, 2015. – p 3.
7. Shonazarova, D. (2024). ChatGPT and its challenges working with idioms and writing systems in Uzbek language. *Nordic\_Press*, 3(0003).
8. Shonazarova, D. (2024). Yuridik matnlar tarjimasida jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularning yechimi. *Nordic\_Press*, 3(0003).
9. Shonazarova, D. (2024). Simultaneous interpretation and required competencies for choosing the profession. *Nordic\_Press*, 3(0003).
10. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMA VA UNING KELIB CHIQISHI BO‘YICHA NAZARIYALAR. *Nordic\_Press*, 3(0003).
11. Shonazarova, D. (2024). SINXRON TARJIMON KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI. *Nordic\_Press*, 3(0003).
12. Shonazarova, D. SINXRON TARJIMA AMALIYOTI VA NAZARIYASI. *UZBEKISTAN*, 43.
13. Shonazarova, D. (2024). O‘zbekistonda ziyorat turizmini shakllantirishning muhim omillari. *Nordic\_Press*, 3(0003).
14. Shonazarova, D. (2025). INGLIZ-O‘ZBEK TILLARI SINXRON TARJIMASIDA SIYOSIY-DIPLOMATIK NUTQNING QIYOSIY TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 390-393.
15. Shonazarova, D. (2024). Syntactic problems in simultaneous interpretation. *Nordic\_Press*, 3(0003).
16. Siegfried Ramler. The Origin and Challenges of Simultaneous Interpretation: The Nuremberg Trial Experience. - *Interpretation Studies*, No. 7, December 2007, pp 7-18.
17. Yusupova, M. (2021). Distance learning of foreign languages. *Экономика и социум*, (8 (87)), 84-87.
18. Виктория Лебович. Нюрнбергский процесс – Колыбель синхронного перевода. - Будапештский университет им. Лоранда Этвеша, Венгрия P-140/1, исследования по языкознанию, литературе и методике, материалы международного симпозиума «100 лет Клужской славистике» Клуж-Напока, 30-31 мая 2019 года.
19. Гофман, Э. К истории синхронного перевода. – Тетради переводчика 1, 1963.